

7. “Психолог билан ишлашни хоҳлайсизми?”

7-жадвал

№	Жавоблар	Эркак		Аёл		Жами	
		сон	%	Сон	%	сон	%
1	Ҳа	49	61%	58	68%	107	65%
2	Йўқ	31	39%	27	32%	58	35%
	Жами	80	100%	85	100%	165	100%

Беморларнинг яқин қариндошлари психолог билан ишлашни хоҳлаши бўйича берилган саволга ҳа, ҳоҳлардим, деган жавобни 49 нафар эркак, 68 нафар аёл қариндошлар, жами 107 нафар (65%), йўқ, деган жавобни 31 нафар эркак, 27 нафар аёл қариндошлар, жами 58 нафар (35%) респондент жавоб бердилар.

Юқорида биз томонимиздан олиб борилган онкологик беморларнинг яқин қариндошлари учун ижтимоий-психологик сўровнома натижаларидан кўриниб турибдики, касаллик нафақат бемор ҳаётида жиддий ўзгаришларни, балки унинг яқин қариндошлари ҳаёт шароитларида сезиларли ўзгаришларни келтириб чиқарган.

Демак, онкологик беморлар билан психологик тадбирларни амалга оширишда уларнинг қариндошларини ҳам психологик қўллаб-қувватлаш мақсадга мувофиқ ҳисобланиб, бу орқали бемор руҳиятига кенг қамровда ижобий таъсир қилиш мумкин.

Адабиётлар

1. Carver C., Smith R., Antoni M. et al. Optimistic personality and psychosocial well-being during treatment predict psychosocial well-being among long-term survivors of breast cancer. *Health Psychol* 2005; 24 (5): 508.
2. Donnelly J.M., Kornblith A.B., Fleishman S. et al. A pilot study of interpersonal psychotherapy by telephone with cancer patients and their partners. *Psychooncology* 2000; 9: 44-56.
3. Meyer T.J., Mark M.M. Effects of psychosocial interventions with adult cancer patients: a meta-analysis of randomized experiments. *Health Psychol* 1995; 14: 101-8.
4. Sheard T., Maguire P. The effect of psychological interventions on anxiety and depression in cancer patients: results of two metaanalyses. *Br J Cancer* 1999; 80: 1770-80.
5. Westlake S.K. The effects of psychoeducational care provided to adults with cancer: meta-analysis of 116 studies. *Oncol Nurs Forum* 1995; 22: 1369-81.

РЕЗЮМЕ

Мазкур мақолада онкологик касалликларнинг бемор яқин қариндошларига ижтимоий-психологик таъсири хусусиятлари назарий ва эмпирик таҳлил қилинган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье проводится теоретико-эмпирический анализ особенностей социально-психологического воздействия онкологических заболеваний на близких родственников больного.

SUMMARY

In this article provides a theoretical and empirical analysis of the features of the socio-psychological impact of oncological diseases on close relatives of the patient.

SURUNKALI VIRUSLI GEPATIT S KASALLIGINING TATQIQOTLARDA O‘RGANILISHI

M.Yusupova – magistrant

D.Illhamova – magistrant

Urganch davlat universiteti

Tayanch so‘zlar: surunkali virusli hepatit S, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, latent davr, etiologiya, patogenez, salomatlik, defferensial psixokorreksiya, motivatsiya, psixosomatika, kasallikning ichki manzarasi, hayot sifati, stigmatizatsiya, sublimatsiya, kompensatsiya, yatrogeniya.

Ключевые слова: хронический вирусный гепатит С, Всемирная организация здравоохранения, латентный период, этиология, патогенез, здоровье, дифференциальная психокоррекция, мотивация, психосоматика, внутренняя картина болезни, качество жизни, стигматизация, сублимация, компенсация, ятрогения.

Key words: Chronic viral hepatitis C, World Health Organization, latent period, etiology, pathogenesis, health, differential psychocorrection, motivation, psychosomatics, internal picture of the disease, quality of life, stigmatization, sublimation, compensation, iatrogenic.

XX asrning oxiridan to hozirgi kungacha butun dunyoda yuqumli kasalliklar bo‘yicha epidemik vaziyat murakkab-ligicha qolmoqda. Ma‘lumki yuqumli kasalliklar, yurak-qon tomir, onkologik kasalliklardan so‘ng, keng tarqalganligi va yomon oqibatlari bilan uchinchi o‘rinda turadi [3].

Yuqumli kasalliklar orasida surunkali hepatit kasalliklari alohida o‘rin tutadi. Hepatit bilan kasallanishlar tarkibida yuqish mexanizimining o‘ziga xosligi, kasallik oqibatlarining o‘tkirliigi, surunkali davolanish, latent davrining uzoq vaqt davom etishi va samarali davolash kursing yo‘qligi bilan ajralib turuvchi surunkali virusli hepatit S hozirgi kunda jiddiy muammodir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti 2000- yildan buyon hepatit o‘limining 22% ga oshganini xabar qiladi. Jumladan Respublikamizda 2019-yil statistik ma‘lumotlarga ko‘ra virusli hepatit bilan kasallanishlar soni aholining 27,3 mingini qamragan [9].

Surunkali virusli gepatitni (VGS) o‘rganishning tadqiqotligi va milliy ahamiyati dunvo bo‘yicha keng tarqalishi va yuqori kasallanish darajasi bilan bog‘liq. Tadqiqotlarga ko‘ra, Markaziy va Sharqiy Osiyo hamda Shimoliy Afrika dunyoda sariq kasalligining C va B turi eng ko‘p tarqalgan mintaqalar hisoblanib, Markaziy Osiyo respublikalari ichida O‘zbekistonda eng vuqori daraia qavd etilgan [7]. Shu munosabat bilan turli davlatlarda va turli soha vakillari tomonidan bu kasallikning etiologivasi, patogenez, klinik ko‘rinishlari, psixologivasi, oqibatlari, davosi va boshqa ko‘plab tomonlari tadqiq qilinmoqda.

Mamlakatimiz hukumati bu borada 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasida yuqumli kasalliklarga, shu jumladan Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-iyuldagi 537-son qaroriga binoan virusli hepatit kasalliklariga tashxis qo‘yish, ular profilaktikasi va ularni davolash usullarini yanada takomillashtirish

bo‘yicha kompleks chora tadbirlar ishlab chiqildi. Bunda “B” va “S” virusli hepatit kasalligiga barvaqt tashxis qo‘yishni bosqichma-bosqich joriy etish, Respublika hududlarida har yili dispenser ko‘rigi va profilaktik tibbiy ko‘rklar o‘tkazish, surunkali “S” virusli hepatit va uning asoratlarini davolashda virusga qarshi maxsus terapiya o‘tkazish va ularning asoratlarini bilan kasallanish holatlarini YuKEMAT (yuqumli kasalliklar elektron axborot tizimi) dasturida qayd qilish kabilarga alohida etibor qaratilgan [8]. Bu esa mamlakatimizda hepatit kasalliklari bilan kurashishga etibor namunasidir.

Salomatlikka qarama- qarshi holat hisoblangan kasallik-klinik ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladigan patologik jarayon bo‘lishi bilan birga psixologik nuqtayi nazardan o‘zlik tuyg‘usi, to‘kin hayotga qaytaolmayman degan qo‘rquv, bizni go‘zal dunyodan ayiruvchi chegara, sog‘inch, yurakdagi og‘riq, insoniy mehrga tashnalikdir. Shu nuqtayi nazardan har qanday kasallik, ayniqsa surunkali kechuvchi kasalliklarda ruhiy qo‘llab-quvvatlash, bemor shaxsiga kompensatsiya berish, kasallikka qo‘rquvini kamaytirib, davolanishga motivatsiyasini oshirish, kasallik bilan og‘rigan shaxsning e‘tiborini sublimatsiya qilish, kasallikka qarshi kurashda bemor shaxsi va uning atrofidagilari hayotini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan xorij tadqiqotlarida ko‘plab kasalliklar psixologik jihatdan o‘rganilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bular orasida virusli hepatit bilan og‘rigan bemorlarni psixologik tatqiq etishga doir bir qancha amalga oshirilgan tadqiqotlar alohida o‘rin egallaydi. Jumladan rus psixologi V.V Ogarevning “Surunkali virusli hepatit S bilan og‘rigan bemorlarda kasallikning ichki manzarasi va davolash motivatsiyasi” mavzusidagi tadqiqot ishi surunkali virusli hepatit S bilan og‘rigan bemorlarda kasallikning

ichki manzarasi xususiyatlarini aniqlash va ularni davolashda motivatsioning psixokorreksiya dasturini ishlab chiqishga qaratilgan. Olim tadqiqotida surunkali virusli gepatit bilan ogʻrigan bemorlarda davolanish motivatsiyasiga taʼsir qiluvchi psixologik omillarning birinchi marta tizimli tahlilini oʻtkazgan, bemorlarning xarakterli xususiyatlari kasallikning ichki manzarasi, davolanish motivatsiyasiga taʼsiri va bemorlarda davolanishga nisbatan past motivatsiya shakllanishi psixologik mexanizmlarining nazariy modelini tavsiflagan. Shuningdek olim tomonidan surunkali virusli gepatit S bilan ogʻrigan bemorlarni tarbiyalash va differensial psixokorreksiya qilish dasturi ishlab chiqilgan [4].

Shuninhdan, Ye.G Lambrovaning “Surunkali virusli gepatit bilan ogʻrigan bemorlarning somatopsixik koʻrinishlari va hayot sifati” mavzusida izlanishlarida virusli gepatit kasalliklarda tibbiy vordamni oʻrganish va jismoniy cheklovlarini kamaytirilishi, ruhiy kasalliklar virusli infeksiyasining davom etishiga, xavfli kechishiga, faoliyati fazasi va rivojlanishiga bogʻliqligini oʻrganishga alohida eʼtibor qaratgan. Ushbu tadqiqot orqali surunkali virusli gepatit bilan ogʻrigan bemorlarda ruhiy kasalliklar tabiati va chastotasi birinchi marta tadqiq qilindi. Shuningdek kasallikni koʻzgʻatgan gepatit virusining turi va virusli infeksiyaning davom etishi kasallikning ruhiy holatiga taʼsir qilishi, ruhiy holat koʻrsatkichlari jigarda fibroz jarayonlarining ogʻir, yalligʻlanish jarayonining gistologik faolligi indeksiga, sitoliz sindromiga bogʻliq emasligi, bemorlarning hayot sifatining sifatiga eng koʻp taʼsir koʻrsatadigan koʻrsatkichlar aniqlangan [2]. Bu yerda olim tibbiyot sohasida psixologiyani aralashuviga alohida ahamyat qaratgan.

Surunkali virusli gepatit S kasalligini psixologik tadqiq qilish borasida amerikalik olimlarning izlanishlari ham salmoqli. Jumladan Sunil Obediyaning “Gepatit S boʻlgan faxriy harbiylarda salomatlik savodxonligi, depressiya va oʻz oʻziga xizmat qilish” mavzusidagi tadqiqoti alohida oʻringa ega. Tadqiqotda VGS bilan tashxis qoʻyilgan harbiy faxriylar orasida salomatlik savodxonligi, ruhiy tushkunlik va oʻz-oʻzini parvarish qilish oʻrtasidagi munosabatlar, salomatlik savodxonligi holatida uyatning va sogʻliqni saqlash savodxonligi holatida mulqotning roli, gender farqlar, psixologik maslahatda salomatlik savodxonligining ahamiyati oʻrganilgan. Yuqoridagi koʻrsatkichlar orqali olingan natijalar dastlabki tashxis qoʻyilgan vaqt va tashxisdan keyin uch oy oʻtgach solishtirilgan. Natijada harbiy bemorlarda oʻzini parvarish qilish 2 ballga pasaygan depressiya esa 2 ballga oshgan. Pasaygan ballar salomatlikning yomonlashishi taʼsirini yana bir bor aks ettirgan [5].

Shuningdek, bu yoʻnalishda D.P.Barreyraning “Gepatit S bilan bogʻliq boʻlgan psixo-ijtimoiy va neyrokognitiv omillar - ke-lajakdagi salomatlik va farovonlik uchun oqibatlar” mavzusidagi tadqiqotida psixosotsial va neyrokognitiv omillar va VGS

oʻrtasidagi bogʻliqlikni koʻrib chiqadigan soʻnngi adabivotlarni umumlashtirish, shu bilan birga kasalliklarni tuzatish va salomatlik hamda farovonlik uchun oqibatlarini baholashga alohida eʼtibor qaratilgan [1]. Bundan tashqari boshqa koʻplab surunkali virusli gepatit S kasalligining psixologik jihatlarini oʻrganish borasida xorijiy tadqiqot namunalari koʻrish mumkin. Jumladan, “Surunkali gepatit B va C bilan ogʻrigan bemorlarning psixosotsial muammolari” (Enescu A.), “Surunkali virusli gepatit bilan ogʻrigan bemorlar orasida psixologik buzilishlar va hayot sifati” (Fotos N.V.), “Surunkali gepatit B va C bilan kasallangan turkiyalik bemorlarda ijtimoiy stigmatizatsiya” (Yozgat A.) va boshqalarini keltirishimiz mumkin.

Mamlakatimizda psixologlardan Gʻ.Shoumarov, E.Gʻoziyev, B.Qodirov, V.Karimova, Z.Nishanova, Z.Ibadullayev, Sh.Baratovlar salomatlik psixologiyasi, psixofiziologiya, psixogigena, tibbiy psixologiya, turli sohalarda psixologik xizmat masalalari boʻyicha, shuningdek, M.Karamyan, D.Ilxamova, D.Urazbayevlar turli xil kasalliklarda bemor psixikasini oʻrganish holatlarini tadqiq qilganlar. Ammo surunkali virusli gepatit S kasalligi bilan ogʻrigan bemorlar psixologiyasini oʻrganish boʻyicha milliy muhitimizda tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Mamlakatimizda olib borilayotgan tibbiyot sohasidagi psixologik tadqiqotlarning ahamiyati bemorga psixologik yondashuv bilan davolash samaradorligini va hayot sifati sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Bemorning ruhiyatiga taʼsir qilish, ishtirish, tushuntirish, hissiy holatini tartibga solish, stressli vaziyatlarga qarshi turish bular tibbiyot va psixologiya oʻrtasidagi munosabatlarning toʻliq roʻyxati emas [6]. Bu yerda psixologning yordami kasallikni davolashga emas, balki bemorni davolashga yordam beradi. Shuni esda tutish kerakki, hatto bitta oʻylamay aytilgan soʻz ham bemorda salbiy emotsional reaksiyaga sabab boʻlishi, yatrogeniyaga olib kelishi mumkin. Bu baʼzida bemorning giperesteziya va unga aytilgan har bir soʻzga juda sezgir boʻlganligi tufayli yuzaga keladi. Shuning uchun bemorlar bilan suhbatlashish jarayonida soʻzning roli va psixologik munosabatni hisobga olish kerak.

Xulosa oʻrnida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda organizmda sodir boʻlayotgan fiziologik jarayonlarni oʻrganishning oʻzi yetarli emas, shaxs psixikasini, xarakterini, aql-zakovotini, his-tuygʻularini tadqiq qilish muhimdir. Hayotiy tajriba va munosabatlar koʻp jihatdan nafaqat asab va aqliy jarayonlarning namoyon boʻlishi va rivojlanishini belgilaydi, shu bilan birga somatik va ichki kasalliklar, salomatlikdagi oʻzgarishlarga ham taʼsir koʻrsatadi. Demak, bugungi kunda tibbiy psixologiyaning oldida turgan asosiy vazifalardan biri ham turli kasalliklarda bemor psixikasini oʻrganish va ularda kasallik bilan kurashishda ichki psixologik zahiralarni ishgʻa solishiga koʻmaklashishdan iboratdir.

Adabiyotlar

1. Barreya D.P “Psycho-social and neurocognitive factors associated with hepatitis C - consequences for future health and well-being” D.P.Barreya <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/23550100/Gepat> Mon.2013 yil yanvar;13(1):e8340. doi: 10.5812/hepatmon.8340. Epub 2013 yil 7 yanvar.
2. Ламброва Е.Г кандидат медицинских наук “Соматопсихические проявления и качество жизни пациентов с хроническими вирусными гепатитами” тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 14.00.05, 3-5-с
3. Mirzakarimova D.B., Yuldashev Ya.M. “Yuqumli kasalliklarning erta va differensial diagnostikasi” Toshkent 2019 4-b
4. Огарев В.В «Внутренняя картина болезни и мотивация на личные больных хроническим вирусным гепатитом С» Автореферат и диссертации на соискание учёной степени кандидата психологических наук 4-с.
5. Sunil O “Health Literacy, Depression and Self Care in Military Veterans with HepatitisC” Sunil Obediya <https://hdl.handle.net/11244/7527>
6. https://studref.com/psihologiya/psihologiya_medsina.
7. <https://www.bbc.com>
8. <https://www.lex.uz/docs>
9. my.gov.uz.

REZYUME

Maqolada surunkali virusli gepatit S (VGS) kasalligining psixologik jihatdan oʻrganish dolzarbligi, uni oʻrganishdagi tadqiqotlarning ahamiyati, tibbiyot sohasiga psixologik aralashuv, xorijiy mamlakatlarda surunkali virusli gepatit S kasalligidagi bemorlarni psixologik tadqiq etishga doir bir qancha amalga oshirilgan ishlar tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ

В статье проанализированы актуальность психологического изучения хронического вирусного гепатита С (ВГС), значение исследований в его изучении, психологическое вмешательство в медицине, ряд исследований по психологическому изучению больных хроническим вирусным гепатитом С в зарубежных странах.

SUMMARY

The article analyzes the relevance of the psychological study of chronic viral hepatitis C (VGS), the importance of research in its study, psychological intervention in medicine, a number of studies on the psychological study of patients with chronic viral hepatitis C in foreign countries.